SIYOSIY TAHLILCHILAR TAYYORLASHDA XORIJ TAJRIBASI (HINDISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Iskenderova Iroda
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada siyosiy tahlilchilar tayyorlash tizimi va aqliy markazlar faoliyati Hindiston tajribasi misolida tahlil qilinadi. Maqolada Hindiston universitetlari va mustaqil aqliy markazlarning siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, maslahatlar berish va davlat siyosatiga ta’sir ko‘rsatishdagi roli ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, Hindistondagi markazlar faoliyatidagi moliyalashtirish cheklovlari va ilmiy ishlarning yopiq bo‘lishi kabi muammolar, hamda O‘zbekistondagi aqliy markazlar soni va mustaqil tadqiqot imkoniyatlarining cheklanganligi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy tahlil, aqliy markazlar, UGK, JNU, Jadavpur Universiteti, ISI

KIRISh Zamonaviy davrda xalqaro munosabatlar tizimi keskin o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Davlatlar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi, xavfsizlik muammolarining ko‘payishi va iqtisodiy tahdidlar fonida siyosiy qarorlar qabul qilishda tahliliy yondashuv zarur bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan siyosiy tahlilchilar zamonaviy siyosiy tizimning ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Siyosiy tahlilchilar davlat siyosatini shakllantirish, mavjud muammolarni o‘rganib, ularni tahlil qilib shu asosida qarorlar ishlab chiqishda muhim ro‘l o’ynaydi. Ular siyosiy jarayonlarni tahlil qilish bilan birgalikda ularni bashorat qilish, xavf va imkoniyatlarini aniqlash orqali siyosiy qarorlar qabul qiluvchilarga ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi. Bugungi kunda siyosiy tahlilchilarning roli faqat davlat doirasida emas, balki mustaqil aqliy markazlar (think-tanklar), xalqaro tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari orqali ham kengayib bormoqda. Shuning uchun siyosiy tahlilchilar tayyorlash tizimini o‘rganish va uni rivojlanayotgan davlatlar tajribasi misolida tahlil qilish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi. Mazkur maqolada ham siyosiy tahlilchilar tayyorlash borasida rivojlangan davlat Hindiston Respublikasi misolida ko‘rib chiqamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hindistondagi aqliy markazlar haqida ularning shakllanishi va foydali tomonlari haqida bir nechta olimlar o‘z maqolalarida keltirib o‘tgan. Jumladan, hind olimasi, professor, Javoharlal Neru universitetida xalqaro siyosat yo‘nalishida faoliyat yuritadigan Jayati Srivastava o‘zining “Janubiy Osiyodagi think tanklar. Bilim va hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tahlil qilish” nomli maqolasida aqliy markazlar (think tanklar) nimaligi va ular qayerda joylashgani, bilim va hokimiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi, Janubiy Osiyodagi Bangladesh, Hindiston, Pokiston va Shri-Lanka misollarida think tanklar qayerda paydo bo‘lganini ularning qanday rol o‘ynashini va ularni siyosat jarayoniga kim qanday jalb qilayotganini tahlil qiladi. Shuningdek, Nyu-York shahridagi Siti Kollej, Nyu-York shahar universiteti (City University of New York – City College), siyosatshunoslik bo‘limi dotsenti Rafayel Xan va Germaniyadagi Global va Hududiy Tadqiqotlar Instituti (German Institute for Global and Area Studies – GIGA), vitse-prezident va Osiyo tadqiqotlari instituti direktori; shuningdek, Gamburg universiteti, siyosatshunoslik professori Patrik Kollnerlarning birgalikda yozgan “Hindistonda Tashqi Siyosat Bo‘yicha Think Tanklar: Yangi Ishtirokchilar,

Farq Qiluvchi Tavsiflar” nomli ilmiy maqolasida Hindistonda tashqi siyosat think tanklarining hozirgi holati, yangi ishtirokchilari va ularning farq qiluvchi tavsiflarini tahlil qiladi. So‘nggi yillarda bu markazlar soni oshib, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Ular ikki turga bo‘linadi: liberallik va global aloqalarga yo‘naltirilgan markazlar (ORF, Brookings India, Carnegie India) hamda millatchilik va hukumatga yaqin markazlar (VIF, India Foundation). Think tanklar siyosiy maslahatlar berish, diplomatiya va ma’lumot almashuvda muhim rol o‘ynayotganligi haqida keltirib o‘tishadi.

NATIJALAR

Hindistonda siysosiy tahlilchilar tayyorlash tizimi rivojlangan bo‘lib, unda universitetlar va aqliy markaz (think tank)lar muhim ro‘l o‘ynaydi. Avvalo, Hindiston oliy ta’lim tizimini tartibga solishda asosiy rolni Universitet Grantlari Komissiyasi (University Grants Commission) bajaradi. Ushbu tashkilot 1956-yilgi qonun asosida tashkil etilgan bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarini muvofiqlashtirish va akademik standartlarni belgilash vazifasini bajaradi. Hindiston Ta’lim vazirligining rasmiy hisobotida ham UGK oliy ta’lim sifatini nazorat qiluvchi asosiy institut sifatida ko‘rsatilgan [1]. Shu bilan birga, Hindistonda ta’lim tizimida ingliz tolining keng qo‘llanilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu talaba va taqdiqotchilarning boshqa davlatlardagi ilmiy doiralar bilan integratsiyasini osonlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Hindistonda jami 1,168 ta oliy o‘quv yurtlari mavjud. Shular orasida gumanitar fanlar o‘qitiladigan universitetlar orasida eng mashhurlari Javoharlal Neru universiteti, Dehli universiteti, Jadavpur universiteti, Janubiy Osiyo universiteti va boshqa bir nechta universitetlarda gumanitar fanlar o‘qitilib kelinadi.

Misol tariqasida, Javoharlal Neru Universiteti va Jadavpur Universiteti Hindistonda siyosat va xalqaro munosabatlar yo‘nalishida yetakchi ilmiy markazlar hisoblanadi. Ushbu universitetlarda siyosat fanini o‘qitish an’anaviy yodlashga asoslangan tizimdan farqli ravishda, tahliliy fikrlash va ilmiy tadqiqotga yo‘naltirilgan. Javoharlal Neru Universitetida o‘qitish va baholash tizimi an’anaviy yondashuvlardan sezilarli darajada farq qiladi. Universitet Hindistonda birinchilardan bo‘lib ta’lim jarayonida faqat yakuniy imtihonga tayanish amaliyotidan voz kechib, uzluksiz baholash tizimini joriy etgan. Bu tizimga ko‘ra, talabalar bilimini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va ularning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil ishlari hamda muhokamalardagi ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Bunday yondashuv talabalarning faqat yakuniy natijaga emas, balki butun o‘quv jarayoniga faol jalb etilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, bilim olish jarayoni hamkorlikka asoslangan bo‘lib, auditoriyada fikr almashish va muhokama qilish orqali bilim yaratish jarayoni rag‘batlantiriladi. Hatto magistratura bosqichida ham talabalar mustaqil tadqiqot ishlarini bajarishga yo‘naltiriladi, bu esa ularning ilmiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Jadavpur universitetida, xususan Xalqaro munosabatlar kafedrasida, ta’lim nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslanadi. Bu yerda siyosiy nazariya, global siyosat, strategiya va iqtisodiy masalalar chuqur o‘rganiladi. Talabalar katta hajmdagi ilmiy manbalar (kitoblar, jurnallar, arxiv materiallari) bilan ishlash orqali mustaqil tahlil qilishga o‘rgatiladi. Shuningdek, maxsus tadqiqot markazlari orqali aniq mavzularda chuqurlashtirilgan ilmiy izlanishlar olib boriladi. Mazkur ta’lim tizimining samaradorligi ushbu universitetlar bitiruvchilari misolida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, JNU bitiruvchilari orasida Hindiston tashqi ishlar vaziri Subrahmanyam Jaishankar, moliya vaziri Nirmala Sitharaman, Nepal sobiq bosh vaziri Baburam Bhattarai, shuningdek siyosiy arboblar Sitaram Yechury va Prakash Karat kabi shaxslar mavjud [3]. Shu tariqa, har ikkala universitetda siyosat fani

nafaqat nazariy bilim sifatida, balki amaliy tahlil, strategik fikrlash va qaror qabul qilish vositasi sifatida o‘qitiladi. Natijada, bu oliy ta’lim muassasalari siyosiy jarayonlarni chuqur anglaydigan va siyosiy muhitda samarali faoliyat yurita oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlashda muhim o‘rin egallaydi.

Hindiston Janubiy Osiyoda aqliy markazlar (think tanklar) eng keng rivojlangan mamlakat hisoblanadi. Bu holat qisman milliy ozodlik harakati davrida shakllangan fikrlar xilma-xilligi, qisman esa mustamlakadan keyingi davlat duch kelgan murakkab muammolar bilan izohlanadi. Ba’zi hisob-kitoblarga ko‘ra, taxminan 860 ta aqliy markaz (think tank) ijtimoiy fanlar sohasida tadqiqot olib boradi, biroq ularning barchasi ham yuqori sifat darajasiga ega emas. Bu yerdagi aqliy markaz (think tank)lar tarixi mustaqillikdan oldingi davrga borib taqaladi. O‘sha paytda milliy ehtiyojlarni qondirish uchun mahalliy bilim bazasini shakllantirish maqsadida bir qator institutlar tashkil etilgan. 1931-yilda Kolkata shahrida Indian Statistical Institute (ISI) tashkil etilgan bo‘lib, u eng nufuzli aqliy markaz (think tank)lardan biri hisoblanadi. Unga Prasanta Chandra Mahalanobis asos solgan. Institutning asosiy maqsadi statistikani o‘rganish va uni rivojlantirish, statistik nazariya va usullarni takomillashtirish hamda ularni ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda qo‘llashdan iborat edi. Ayniqsa, milliy rivojlanishni rejalashtirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Mustaqillikdan keyingi dastlabki ikki o‘n yillikda aqliy markazlar siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida muhim o‘rin egalladi. Ular hukumatga ekspert maslahatlari berish va siyosiy elita bilan yaqin aloqalari tufayli katta ta’sir kuchiga ega edi [5]. Masalan, ISI asoschisi Prasanta Chandra Mahalanobis Hindistonning ikkinchi besh yillik rejasini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynagan va u Javoharlal Neru ga yaqin shaxs sifatida tanilgan.

Hindistonda bundan keyin ham bir qancha aqliy markazlarga asos solingan. Ular aynan siyosiy sohada faoliyat yuritadi va davlat boshqaruvi, saylov jarayonlari, tashqi siyosat va xavfsizlik kabi yo‘nalishlariga ixtisoslashgan. Xususan, bular orasida Hindistondagi eng nufuzli va siyosiy aqliy markazlaridan biri Siyosat tadqiqotlari markazi (Centre for Policy Research) hisoblanadi. Mazkur markaz 1973-yildan beri Hindistondagi mustaqil, notijorat va partiyalarga bog‘liq bo‘lmagan yetakchi siyosat bilan shug‘ullanadigan aqliy markaz. Institutning maqsadi yuqori sifatli ilmiy tadqiqotlar olib borish, siyosatni yaxshilash va jamoatchilik munozarasini rivojlantirishdir. STM Hindistonning ilg‘or olimlari va siyosat amaliyotchilarini birlashtirib, siyosat va boshqaruv bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib boradi va hukumat bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Institut muayyan masalalarda kollektiv pozitsiyani egallamaydi, olimlar individual fikrini erkin ifoda etadi [6]. Asosiy yo‘nalishlari siyosat muammolari bo‘yicha dalillar yaratish, siyosat g‘oyalarini shakllantirish va tavsiyalar berish, hamkorlik platformalari orqali siyosat ekotizimini rivojlantirish, yosh olimlarni tayyorlashdir.

Hindistonda faoliyat yuritayotgan boshqa nufuzli think tanklar qatoriga Kuzatuv va tadqiqotlar jamg‘armasi (Observer Research Foundation), Mudofaa tadqiqotlari va tahlillari instituti (Institute for Defence Studies and Analyses), Vivekananda xalqaro jamg‘armasi (Vivekananda International Foundation) hamda Amaliy iqtisodiy tadqiqotlar milliy kengashi (National Council of Applied Economic Research) kiradi [7]. Ushbu markazlar tashqi siyosat, milliy xavfsizlik, iqtisodiy islohotlar va global jarayonlarni tahlil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Jumladan, Kuzatuv va tadqiqotlar jamg‘armasi (Observer Research Foundation) 1990-yilda Hindistonning xalqaro iqtisodiy tizimga moslashuvi davrida mamlakat oldida turgan muammolarni tanqidiy tahlil qilish va izchil siyosiy yechimlar ishlab chiqish maqsadida

tashkil etilgan. Tashkilot ilk bor yetakchi hind iqtisodchilari va siyosatchilarni birlashtirib, Hindiston iqtisodiy islohotlari kun tartibini shakllantirishga hissa qo‘shgan. Vaqt o‘tishi bilan KTJ ichki islohotlardan tashqari global hamkorliklarni rivojlantirishga e’tibor qaratdi va Hindistonning xalqaro maydondagi rolini mustahkamlashda muhim platformaga aylandi. Bugungi kunda u siyosiy va strategik konsensusni shakllantirish, yangi g‘oyalarni siyosiy va tahliliy muhokamalarga olib kirish, shuningdek turli hudud va ijtimoiy qatlamlarning fikr xilma-xilligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyat yuritadi. KTJ milliy va xalqaro darajadagi muhokamalar o‘rtasida bog‘lovchi platforma sifatida ishlaydi, siyosatchilar, olimlar, biznes vakillari va fuqarolik jamiyati ishtirokchilarini birlashtiradi [8]. Shu tariqa u Hindistonning global siyosiy maydondagi pozitsiyasini mustahkamlash va yangi avlod mutafakkirlariga platforma yaratishda davom etmoqda.

Aqliy markazlar zamonaviy siyosiy va tahliliy jarayonlarda muhim rol o‘ynashiga qaramay, ularning faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud. Xususan, On Think Tanks saytida e’lon qilingan maqolada Vox tomonidan o‘tkazilgan so‘rov natijalariga tayanib, ilm-fan va think tanklar faoliyatidagi asosiy muammolar keltirilib o'tiladi. Unda ta’kidlanishicha, eng katta muammo — moliyalashtirish tizimi bo‘lib, tadqiqotlarning loyiha asosida tashkil etilishi olimlar va tahliliy markazlarning mustaqilligini cheklaydi. Moliyalashtiruvchi tomon talablariga moslashish zarurati ko‘pincha tadqiqotlarning mazmuni va yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Shuningdek, ko‘plab tadqiqotlar sifatsiz rejalashtirilishi, natijalarni qayta tekshirishning kamligi va ilmiy taqriz tizimining yetarli ishlamasligi ilmiy natijalarning ishonchliligini pasaytiradi. Ilmiy maqolalarning yopiq bo‘lishi va bilimlarning keng jamoatchilikka yetarli darajada yetkazilmasligi ham muhim muammolar qatoriga kiradi. Bundan tashqari, yosh tadqiqotchilar uchun beqaror va bosimli ish muhiti ilmiy faoliyatni davom ettirishni qiyinlashtirishini keltirib o‘tadi.

O‘zbekistondagi o‘z aqliy markazlari tizimida ham shunga o‘xshash muammolar mavjud. Mamlakatdagi markazlar soni cheklangan, ko‘pchiligi davlat tasarrufida faoliyat yuritadi va mustaqil tadqiqot olib borish imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli, ilmiy natijalarni keng jamoatchilikka yetkazish, yosh mutaxassislarni qo‘llab-quvvatlash va mustaqil tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish O‘zbekiston think tanklari uchun dolzarb vazifalardandir. Hindistondagi tajribadan foydalangan holda, markazlarning mustaqilligini oshirish, ochiq muloqot maydonlarini kengaytirish va yosh tadqiqotchilarni tayyorlash tizimini rivojlantirish O‘zbekiston aqliy markazlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

XULOSA

Umuman olganda, Hindiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimi nafaqat universitetlar, balki mustaqil aqliy markazlar orqali ham rivojlanadi. Bu institutlar siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va maslahatlar berish orqali davlat siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Hindistondagi aqliy markazlar faoliyatida moliyalashtirishning cheklanganligi va ilmiy ishlarning yopiq bo‘lishi kabi muammolar mavjud. O‘zbekistonda ham aqliy markazlar soni cheklangan va mustaqil tadqiqot imkoniyatlari cheklanganligi tufayli, Hindiston tajribasidan kelib chiqib, ularning mustaqilligini oshirish va samaradorligini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ministry of Education (India). (2025). Annual report 2024–25. Ministry of Education, Government of India. Retrieved from https://www.education.gov.in/sites/upload_files/mhrd/files/document-reports/annual_report_eng.pdf
2. Jawaharlal Nehru University. (n.d.). JNU at a glance. Retrieved from https://www.jnu.ac.in/jnuataglance
3. Jadavpur University. (n.d.). About Jadavpur University. Retrieved from https://jadavpuruniversity.in/about/
4. Jadavpur University. (n.d.). International Relations – Academics. Retrieved from https://jadavpuruniversity.in/academics/international-relations/
5. Vaave Team. (2025, November 24). Jawaharlal Nehru University notable alumni. Vaave Blog. Retrieved from https://www.vaave.com/blog/jawaharlal-nehru-university-notable-alumni/
6. Centre for Policy Research. (n.d.). Who we are. Retrieved from https://cprindia.org/who-we-are/
7. Indian Council of World Affairs. (n.d.). About ICWA. Retrieved from https://www.icwa.in/show_content.php?lang=1&level=1&ls_id=1586&lid=1555
8. Mendizabal, E. (2016, July 18). The biggest problems facing scientists (in think tanks). On Think Tanks. Retrieved from https://onthinktanks.org/articles/the-7-biggest-problems-facing-scientists-in-think-tanks/